

“TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANINING BADIY SUJETI VA OBRAZLAR TAHLILI

Mirzayeva Ro`zaxon Valijon qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada O`tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanining sujeti, obrazning har bir uslub xususiyatlari yoritilgan. Asar voqealarining makon va zamon xususiyatlari tahlil qilingan. Yozuvchining obraz yaratish borasidagi badiiy mahorati tadqiq etilgan.

Kalit so`zlar: Sujet, obraz, ekspozitsiya, kulminatsiya, tugun, yechim, retrospeksiya.

Inson ma`naviy olamini kashf etuvchi qudratli vositalaridan biri bu - so`z san`ati, badiiy adabiyotdir. Bugun milliy adabiyotimiz mavzular ko`lami jihatidan ham, janrlar nuqtai nazaridan ham rang-baranglashib bormoqda. Ijtimoiy taffakkur va eskicha qarash va yondashuvlardan xolos bo`lib borayotgan bir davrda ilm-fanning barcha sohalari qatori adabiyotshunoslikning ham muhim nazariy masalalarini har tomonlama teran tadqiq etish borasida keng imkoniyatlar ochilmoqda. Bunda, ayniqsa, milliy adabiyotimiz xazinasini yangi poetik kashfiyotlar bilan boyitishga muvaffaq bo`lgan yozuvchilar ijohodini tadqiq etish beqiyos o`rin tutadi. Shu ma`noda XX asr o`zbek nasrining ko`zga ko`ringan ijodkorlaridan bo`lgan O`tkir Hoshimov so`zni san`at darajasiga olib chiqqan, yuksaklikni axtargan, shu yuksaklikni ijod o`zagi deb bilgan yozuvchidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

80-yillarning oxirlariga kelib, jamiyat hayotida ko`p o`zgarishlar yuz bera boshladi. Qayta qurish oshkoralik tufayli mavjud muammolar xususida gapirila boshladi. 30-50-yillardagi qatag`on manzaralari takrorlandi.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham adibning avval yaratilgan romani “Ikki eshik orasi” romani kabi voqelik bir necha roviylar tilidan hikoya qilinadi. Bu usul adib uchun o`z g`oyasi va fikrlarini ifoda etishning vositasi bo`lib xizmat qilgan. Aynan shu holat asar sujetining ham o`ziga xosligini ta`minlagan, badiiy asarda sujet markaziy ahamiyatga ega hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Albatta, har bir badiiy asar sujeti unda ishtirok etuvchi katta-kichik personajlarning harakatidan tashkil topadi. Harakat tashqi tomonlama yoki ichki o`y-xayol ruhiyatidagi o`zgarishlar ma`nosida bo`ladi. Shunga asoslanib badiiy asarlarni harakat tipidan qaysi biri yetakchilik qilishiga qaarab sujetning ikki turi ajratiladi:

- a) “tashqi harakat” dinamikasiga asoslangan sujet
- b) “ichki harakat” dinamikasiga asoslangan sujetlar.

Tashqi harakatlar dinamikasiga asoslangan sujetlarda personajlarning muayyan maqsad yoʻlidagi xatti-harakatlari, kurash va toʻqnashuvlari tasvirlanadi. Sujetning ikkinchi tipiga asoslangan asarlar adabiyotimizda ancha keyin 80-yillardan boshlab maydonga kela boshladi. “Tushda kechgan umrlar” asarida tashqi harakat dinamikaga asoslangan sujet yetakchilik qiladi. Unda Rustam, Komissar, Qurbonoy xola kabi obrazlar hayotiga tegishli voqealar tasvirlangan. Lekin qahramonlarning oʻy-xayollari ruhiyatida kechayotgan oʻzgarishlarga asoslanib aytish mumkinki, asarda ichki harakat dinamikasiga asoslangan sujetning ham elementlari bor. Asar bosh qahramoni Rustamning oxirgi kundaligidan boshlanadi va Qurbonoy xolaning har kungi tashvishlariga ulanib ketadi aynan Qurbonoy xola asar boshlanishidayoq Rustamning murdasini koʻrib qoladi. Roman kulminatsiya bilan boshlanadi soʻng yozuvchi chekinish usulini qoʻllab bosh qahramon Rustamning oʻlimi va u bilan bogʻliq tafsilotlarni yoritishga kirishadi. Asar sujeti bir nechta liniyalarga boʻlinib ketadi:

1. Rustam- Shahnoza- Rustamning otasi liniyasi
2. Qurbonoy xola- Toʻlagan- Fotima liniyasi
3. Komissar Soat Gʻaniyev liniyasi
4. Grisha-Vasilev Grigoriy Stepanovich liniyasi

Yozuvchi har bir sujet liniyasini mustaqil holda rivojlantiradi. Har birining oʻz konflikti, tuguni, voqealar rivoji, kulminatsiyasi yechimi bor.

Tugundan keyingi voqealar zanjiri voqea rivoji deb yuritiladi. Sujet voqealari bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Asardagi voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, undagi konflikt benihoya kuchaygan oʻrni kulminatsiya deb yuritiladi. Masalan, Rustamning oʻlimi asar kulminatsiyasi hisoblanadi. Undan tashqari Komissarning oʻgʻli Mauzer tomonidan “Sizning oʻgʻlingiz ekanimdan uyalaman” deb aytgan holatni komissar liniyasining kulminatsiyasi deyish mumkin. Ayni shu nuqtada Komissarning va tuzumning gʻayriinsoniylikka asoslangan qiyofasi koʻrsatiladi. Mana shu gap Soat Gʻaniyev koʻksini oʻqdek teshib oʻtadi. Kulminatsiya endi asar voqealarining yechimga tomon intilishini, bir tomonga hal boʻlishini taqozo qiladi. Yechim sujet voqealarini rivojining yakuni ularning nihoyasidagi qahramonlarning ruhiyatida taqdirida yuzaga kelgan holatdir. Yechim konfliktining hal boʻlganini koʻrsatish bilan birga uning hal boʻlmasligini ham koʻrsatadi. Rustamning liniyasi konfliktini yechimi berilmagan. U oʻz joniga qasd qilgan. Komissar liniyasining yechimi esa qoʻrqinchli tushlar, yolgʻizlik odamni yutaman deb turgan uyda tong otishini kutish, nomaʼlum hadik bilan yashashdir. Qurbonoy xola liniyasida esa barcha boʻlib oʻtgan ishlar Allohning irodasi ekanligi aytiladi.

Yuqorilardagidan ma'lum bo'ldiki, tugun, voqealar rivoji va kulminatsiya syujetni tutib turuvchi asosiy unsurlar sanaladi.

“Tushda kechgan umrlar”da yozuvchi qo'llagan sujetning turi usul retrospeksiya deb atalib, uning mohiyati sujet voqealarini to'xtatib o'tmishga, ilgari bo'lib o'tgan voqealar tasviriga o'tadi. Farrosh Qurbonoy xola roman o'rtasiga kelib otasi nohaq qamalgan onasi komissar tomonidan zo'rlangan 14 yoshli qizcha tarzida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealar makon va zamonda kechadi. Shunga ko'ra adabiyotshunoslikda “badiiy vaqf” tushunchasi keng qo'llaniladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'tkir Hoshimov o'zbek xalqini chinakam farzandi sifatida millatimiz boshiga tushgan og'ir fojiani ildizi bilan ochib bergan. O'z qalbini og'ritgan xalqimizning og'riqli nuqtalari xususida mushohada yuritgan. Eng muhimi buni mahorat bilan uddalagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asarlari- T.O'zbekiston.2002-yil.
2. Normatov U. Nasrimiz ufqlari- T. Adabiyot va san'at nashriyoti.1974-yil.
3. N.Homatov.B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati- T.: O'qituvchi 1989-yil.
4. O'. Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar” romani G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti-T: 2002-yil.